

deputatligiga nomzodlar ko'rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanadi.

Shu bilan birgalikda, davlatimiz rahbari tomonidan "Besh muhim tashabbus" deb nomlangan tashabbusi ham xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi. Ushbu tashabbus doirasida joylarda olib borilayotgan samarali islohotlar o'z samarasini bermoqda. Ushbu tashabbus oldidan 2019-yilda "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" qarorning qabul qilinishi ularning ijtimoiy munosabatlardagi rolining oshishiga sabab bo'la oldi.

Yuqoridagi kalit so'zlar bo'limida keltirib o'tilgan gender byudjeti atamasiga izoh bersak, gender byudjeti, mobohiyatiga ko'ra ham, foydalanadigan vositalar nuqtai nazaridan ham mustaqil narsa emas. Bunday byudjet davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida ularga gender komponentini kiritish orqali ularning o'ziga xos transformatsiyasi hisoblanadi. Gender byudjeti byudjetdan ajratmalarning ayollar va erkaklarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlariga ta'sirini o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Gender byudjeti byudjetdan nafaqat ayollar va erkaklar, balki aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari foydasiga to'g'ri taqsimlanishini ta'minlovchi davlat vositasidir. Belgilangan vazifalarga erishish uchun davlat mablag'laridan foydalanish natijasida bunday ta'sir darajasini o'lchash gender byudjetlashtirishning asosiy elementidir.

Gender tenglik haqida gapirar ekanmiz, albatta, yuqoridagi "gender" atamasiga bergan ta'rifimizda "erkak va ayol" kishining huquqlarining hayotning siyosiy va ijtimoiy munosabatlarida teng bo'lishida ekanligi haqida aytdik. Lekin so'nggi yillarda Qonunchilik palatasi va davlat rahbari tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlarda "ayol huquqi" yuqori baholanib, "erkak huquqi" nisbatan kamroq e'tibor qaratilayotgandek, go'yo. "Ayollar daftari"dan tortib, 5 yillik ish stajiga ega ayollarning oliy ta'lim muassasalariga kirishda imtiyozlar berilishigacha...

Gender tenglik tushunchasi bevosita huquqshunoslik fanlari bilan bog'liq bo'lgani uchun qonunchilikdagi ya'ni, ko'pchilik chet ellik faollar e'tiroziga sabab bo'luvchi qonunchilikdagi holatlar haqida ham aytib o'tsak. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 126-moddasi " Ko'p xotinli bo'lish, ya'ni umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonun tahririda - O'z OMPA, 2015 yil, 8-son, 310-modda).¹ Ya'ni, ushbu moddaga qo'shimcha sifatida, "qo'sherli bo'lish" haqida qonunga o'zgartirish va qo'shimcha kiritilmaganligini tanqid qilishadi. O'rinli tanqidni e'tiborga olsak, ushbu tanqid haqiqatda o'rinli. Lekin amaliyotda ushbu holat hozirgacha kuzatilmagan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, davlatimizda gender siyosatining muhim strategik maqsadi millat oilasida xotin-qizlarning o'rne, ularning moliyaviy ahvolini va ijtimoiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan. Lekin, davlatimizning ko'pchilik aholisini musulmonlar tashkil etganligini hisobga olsak, huquq va shariat ushbu jarayonda ancha bahslashadi. Chunki, shariat ayol erkak kishiga qaraganda bir pog'ona pastda bo'lishi kerakligini aytsa, huquq esa ayol va erkak teng huquqli ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu bahsli munozarani hal qilishimiz uchun birinchi marta "huquqiy psixologiya"ni shakllantirishimiz kerak. Zamonaviy dunyoda psixologiya va psixogenetika rivojlanar ekan, biz huquqni yuqorida aytilgan sohalar bilan birga o'rganadigan bo'lsak, bilingki, ayol va erkak nafaqat jamiyatda huquqlarini, balki eng asosiysi, oilada ikki shaxs o'rtasidagi muvozanatni teng saqlay olamiz. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki O'zbekistonda gender sohasidagi o'zgarishlarning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Mamlakatda gender siyosatini har jihatdan amalga oshirishda davlat organlari va xotin-qizlar tashkilotlari birgalikda harakat qilib kelmoqda. Respublikamizda xotin-qizlar huquqlari va erkak, umuman, inson huquqlarini himoya qilishda rasmiyatchilikdan aniq sa'y-harakatlarga o'tilganligi, ya'ni ayniqsa, xotin-qizlarning jamiyat hayotida, ta'lim shaxsiy rivojlanish strategiyasi, ishlab chiqilganligi, xotin-qizlar faoliyatlarini amalga oshirishida va jamiyat hayotini monitoring qilishning barcha bosqichlarida samarali ishtirok eta boshlaganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni.
2019-yil, 2-sentabr. <https://lex.uz/docs/-4494840>
3. Gender I kultura . – Dushanbe: Aziya – plyus, 1999. – 96 s.
4. Money, John (1952). Hermaphroditism: An Inquiry into the Nature of a Human Paradox. Thesis (Phd. D). , Harvard University press.
5. Stoller R. J. Sex and Gender.: The Development of Masculinity and Femininity. _ United Kingdom: Routledge, 1994. – 400 p.
6. Gender responsive budgeting at local administration. UN Women.
7. Promoting gender-responsive policies and budgets: lessons from East Europe experience in the period 2011-2013 UN Women, Austrian Development Cooperation.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISIGA
QO'YILADIGAN TALABLAR**

Norboyeva Guldona She'rqo'zi qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohotlarning muvaffaqiyatiga, eng avvalo, odamlarning o'z ishlariga mas'uliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamlakat taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog'liq. Jamiyatda pedagog (o'qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va mas'uliyatli vazifalarni bajaradi. Dunyoda biror kimsa yo'qki, uning ustoz bo'lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchaning o'z ustoz va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yo'l boshchisi bo'ladi. Ustozning eng buyuk burchi - xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli, shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi uchun ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida o'qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta'rif beradi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot - o'qituvchi va murabbiylarning oliyjanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz".

Tarbiya - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur

bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiyachi quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o'quvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;

- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash; - tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;

- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati; - xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati; - ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish; - tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati; - fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish;

- dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnatish qobiliyati; - o'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;

- qiyin holatlarda o'quvchilarga yordam bera olish; - tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish; - o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o'quvchilarning fikrlarini o'rganish; - o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish; - har bir o'quvchining yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va takomillashtirish; - o'quvchilarning ijtimoiy kelib chikishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish. Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati o'qituvchi - tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi

zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish - pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'liqdir. Pedagogik qobiliyat - pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek, uni bu faoliyatga tayyorlash

jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat - bu yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun – T.: 2019.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5313-son Farmoni. www.lex.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda
“Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 802-son qarori.

4. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Qayumova, M.N.A'zamova. “Maktabgacha pedagogika” Darslik. Toshkent. 2019 yil